

## XURSHID DO'ST MUHAMMAD HIKOYALARIDA "NAZIRANA VISLIK"

**Ismoilova Fotima Baxriddinovna**

Samarqand shahar, 81-umumi o'rta ta'lim maktabi, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Hikoya janri o'zining hajman ixchamligi, shakl va mazmun, kompozitsion qurilishi, til, uslub va boshqa poetik unsurlar originalligi bilan g'oyaviy-emotisonal qiymat kasb etadi. Xurshid Do'st muhammad tomonidan yaratilgan epik turning eng kichik va hozirjavob janri bo'lgan hikoyalarning o'zi ham yozuvchini xalq yozuvchisi degan sharaflı mavqega ko'tara oldi. Adib ijodida o'zbek adabiyotida ilk hodisa sanalmish "naziranavislik" ka asos solishi ham yozuvchining kata ijodiy mahorat va jasoratga egaligidan dalolat beradi.

**Kalit so'zlar:** *naziranavislik, "Yeti qavat" hikoyasi, muqoyasa, Dino Busatti, "Jimjixonaga yo'l" hikoyasi, badiiy quroq, jahon adabiyoti, ijodiy tajriba.*

**Аннотация:** Жанр рассказа приобретает идеально-эмоциональную ценность благодаря своей компактности, форме и содержанию, композиционному построению, языку, стилю и другим поэтическим элементам. Созданные Хуршидом Достмухаммедом рассказы, самый малочисленный и актуальный жанр эпического жанра, смогли поднять писателя на почетное положение народного писателя. О большом творческом мастерстве и смелости писателя свидетельствует также создание «Назиранавислика», считающегося первым явлением в узбекской литературе.

**Ключевые слова:** *назарейское письмо, рассказ «Семь этажей», сравнение, Дино Бусатти, рассказ «Дорога в тихий дом», художественный стиль, мировая литература, творческий опыт.*

Milliy adabiyot va jahon adabiyotida shakllangan badiiy mahorat maktablari bilan yaqin hamkorlikning diqqatga sazovor samarasini yozuvchi Xurshid Do'st muhammad ijodida yaqqol ko'rish mumkin. O'zbek hikoyachiligidagi nazira sifatida bitilgan birinchi asar Xurshid Do'st muhammadning "Jimjixonaga yo'l" asaridir. Bu hikoya italiyalik yozuvchi Dino Busattining "Yeti qavat" hikoyasiga shunchaki nazira bo'lib qolmay, badiiy quroq hamdir.

Yozuvchining o'zi "Jimjixonaga yo'l" hikoyasining yozilish tarixi haqida shunday izoh keltirgan: "Ko'p yillar bo'ldi, italiyalik mashhur adib Dino Busattining "Yeti qavat" hikoyasi ta'sirida yuraman. Nihoyat, ushbu favqulodda o'ziga xos hikoyani erkin tarjima qilib, unga "nazira" o'laroq hikoya bitdim". Agar e'tibor qiladigan

bo'lsak, izohda "nazira" so'zi qo'shtirnoqqa olingan. Bundan shu narsa anglashiladiki, "Jimjixonaga yo'l" asari tom ma'noda nazira emas. Kurshid Do'stmuhammad "Yetti qavat" hikoyasiga nazira bag'ishlar ekan, undan ko'p yillar mutaassir bo'lib yurganini yozadi. Yozuvchi hikoyani "Yetti qavat" hikoyasining erkin tarjimasi bilan ketma-ketlikda beradi. Bu naziranavislikda uchramaydigan holat edi. Yozuvchining bundan ko'zlagan maqsadi muqoyasadir. Butun asarning mazmun-mohiyati, o'ziga xosligi qiyoslash asosiga qurilgan. Asarning bu jihatni ham nazira janridan tubdan farq qilib, asarning umumiy yo'naliishiga, yozuvchining maqsadi va g'oyasiga xizmat qilishidir. Muallifning maqsadi hikoyani o'qish jarayonida ochilib boraveradi.

Chindan ham, asar kutilmagan ijodiy bir tajriba bo'ldi deyish mumkin. Unga muallif avval tarjima hikoyadan bir bobni, so'ngra xuddi shu mash'um, qayg'uli shifoxona mavzusidagi o'zining hikoyasidan bir bobni, so'ngra yana tarjimadan, so'ng yana hikoyasidan bir boblarni kiritib boraveradi. Italya adibi hikoyasi qahramoni Dino Korte ham, o'zbek adibi hikoyasi qahramoni Zohid Yaqin ham avvalgi kunlarda shifoxonadagi qulaylik, ajoyib pokizalik, sokonlik, jimjitlikni ko'rib, his etib, shifoxona va shifokorlaga mehr qo'yadi. Dino Korte ham, Zohid Yaqin ham umr bo'yi yaxshi dam olmagan, mehnatkash, oqko'ngil, samimiy insonlar bo'ladi. "Ana, hamqishloqlari rosa ta'rifini keltirgan kasalxona ro'parasida turibdi. Aytganlaricha bor ekan, kasalxona emas, naq mehmonxona deysiz! Palatalari ham besh yulduzli musofirxonalardan kam bo'lmasa kerak! Atrofini aytmaysizmi, zinch ekilgan daraxtlar baland-baland o'sgan, hammasi birdan gullasa bormi, chaman bo'lib ketar?!"

Shifokorlari ham rosa tajribali yeishgandi, ana, binosidan sezilib turibdi. Dino Korte malakali vrachlarning maslahatini jon qulog'i bilan tinglaydi, nimaiki tavsiya qilishsa, hammasini jon-jon deb ado etadi va sog'ayib chiqadi! Ana o'shanda, uyiga qaytayotib, shu yerga keladi, bir zum to'xtab ortiga o'giriladi-da: "Yaxshi qol, shifoxona!" deb xayrashadi.

U o'rnidan turib karavotning suyanchig'ini, deraza romlarini, kiyim ilinadigan choqqina shkafni ochib-yopib, ushlab-ushlab ko'rди. Yuragi orziqib ketdi, xuddi ko'pdan beri ilhaq kutib, sog'inib yurgan odamining diydoriga yetishgandek...palataning bag'riga bosgisi keldi. Shu kayfiyatda, hatto, o'zining kasal ekanini ham unutdi".

O'limi oldidan italyan bemor Dino Korte qat'iy nozrozilik bildirib, "shifokorlar"ni bo'ralatib so'kadi, o'zbek bemori Zohid Yaqin esa o'zining o'limidan rohatlanadi. Farishtalar olamiga kirayotganida "shifokorlar"ga minnaddorchilik bildiradi.

"Dino Korte qahratonda yupun qolgan odamdek qalt-qalt titrar, unga qo'shilib to'shak lopillar, yostiqning jildi jiqla terga botgan edi. Uning bo'g'zidan g'alati o'kirik otilib

chiqdi. U bu dunyoga, tiriklar haqiga ta'na-ma'lumot yog'dirishi uchun baqirib-chaqirishdan o'zga imkoniyati qolmagan edi. Ko'targan shovqiniga yarasha o'qraymoqchi bo'lib butun madorini ko'zlariga jamlagan edi, lekin shuning ham uddasidan chiqmadi.

Xona jimjit, na jon, na sas alomati sezildi. Bu- daxshatli jimjitlik edi.

Shuncha odam yig'ilgan joyning bu qadar sokinligi, bitta-yarimta uzuq-yuluq gapso'zlar ham qandaydir sukunat og'ushidan sirg'alib chiqayotgan hazing-muloyim musiqa sadosi ostida eshitilmay ketayotgani Zohid Yaqinga shu qadar yoqayotgan ediki, nazarida musiqa sadosi tinsa, ostidagi karavot g'ildirashdan to'xtab qoladigandek, ikki yonida izma-iz borayotganlar uvvos solib faryod ko'tarayotgandek edi".

Aytish mumkinki, mazkur ijodiy tajriba asosida jahon adabiyoti hikoyasi bilan o'zbek adibining hikoyasi birlashib, janr ramkasini yorib, g'aroyib va o'ziga xos qissani hosil qilgan deyish mumkin.

Hikoya nima sababdan bir o'qishdayoq tasavvurga muhrlandi? Nega ko'pchilikka ma'qul keldi? Adabiy matnning teng yarmi ajnabiy bir yozuvchining asari-ku! Asrlar davomida amaliy tajribadan o'tgan haqiqat shuki, san'atkor muayyan bir mavzuga qo'l urib, voqelikni maromiga yetkizib tasvirlasa, har qanday inson ko'ngliga o'tiradi, ko'pchilikni o'yantiradi, qalbiga zavq, tafakkuriga yuk beradi, xotirasiga abadiy muhrlanadi.

Xurshid Do'stmuhammad bilan Dino Busatti hikoyalarida hayot va o'lim hodisasi ramziy usulda tasvirlanadi. Hikoyada ikki qahramon ikki xil kayfiyatda tasvirlanadi. Biri bino egasi Faketti o'z ismining yetti harfiga moslab qurdirgan yetti qavatli shifoxonaning eng yuqori qavatidan pastiga qo'rquv, bezovtalik, havotir va dahshat og'ushida tushayotgan bemor Dino Korte. U – yolg'iz odam; do'st-birodarlar, yaqinlar, qarindosh-urug' va jamoa iltifotidan bebahra. U hikoya avvalida tezda sog'ayib ketishiga umid qiladi. Peyzaj tasviri ham shunga monand- musaffo osmon, yam-yashil daraxtlar: "...yuqorida qaralsa, daraxtzorning quyuqligidan yer ko'rinas ekan, ko'm-ko'k!.. Daraxtlar gulga kira boshlabdi, mitti gul yaproqlaridan taralayotgan xushbo'y hid dimoqni qitiqlaydi". Pastki qavatlarga tushib borgani sari bemor ruhiyatini bezovtalik egallay boshlaydi. Oxirida yozuvchi yerga tushirilgan qahramoni ruhiy holini shu holatda tasvirlaydi: u "ko'zini amal-taql yirib ochganida nimqorong'u derazadan ko'rinyotgan daraxt tanasi, tanasigina emas, hatto yaproqlari ham yasamadek, jonsizdek tuyuladi". Kuni bitib, "daxshatli jimjitlik"ka uchragan bemor holati yana daraxt detail muqoyasasi va motivirovkasi bilan mustahkamlanadi. O'limi oldidan kun bilan tunni farqlamay qolgan Dino Korte "jimxitxona"ga ojiz va chorasisiz

holda ravona bo'ladi.

O'zbek adibining qahramoni Zohid Yaqin esa boshqacha odam, Dino Kortening butunlay teskarisi. U yolg'iz emas, xotini Robiya, qaynisi O'ktam va o'g'li undan tez-tez xabar olib turadi. Har bir qavatda kimgargadir duch keladi; u yerdagi "hamshira"larning Shavqiya, Mushohida, Mujohida kabi ismlari ham bekorga tanlanmagan, o'ziga xos ma'no tashiydi. "Xudodan o'ziga sabr-toqat" so'raydigan, shu so'rash jarayonida "vujudiga quvvat yugurayotgandek o'zini tetik, bardam his" qiladigan Zohid Yaqin o'lim har qanday inson boshiga keladigan qismat ekaniga zimdan tayyorlangan bir qahramon. Hikoya yakuniga borib adib: "Zohid Yaqin yo'lak adog'idan oqib kelayotgan sutdek nur og'ushida yastanib yotgan keng va yam-yashil sayhonlikni ilg'ab, shu qadar bahri dili ochiladiki!.." deb o'z qahramoning jozibali holatga duch kelganini ifodalaydi.

Hikoyada tasvirlangan kasalxona - makon. Odamlar gavjumlashadigan joyni - kasalxona yoki mehmonxonani adabiy makon sifatida tanlash jahon adabiyotida ko'p uchraydigan hodisa sanaladi. Bunday misollarni boshqa qissa va romanlarda ham kuzatamiz. Bu har bir yozuvchining mahorati sanaladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xurshid Dostmuhammad. "Beozor qushning qarg'ishi": Hikoyalar.- T.: Sharq, 2006.
2. Дўстмуҳаммад X. Izhor. Т. Янги аср авлоди. 2021.
3. Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. -T.: Universitet, 2007.
4. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. –Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008.
5. Do'stmuhammad X. Ijod – ko'ngil munavvarligi. –T.: Mumtoz so'z. 2011.